FOYDALANUVCHI QO'LLANMASI

SOVUTGICH VA MUZLATGICH

Sovutgichni yoqishdan avval ushbu foydalanuvchi qo'llanmasini yaxshilab o'qib chiqing va kelgusida foydalanish uchun saqlab qo'ying.

UZ O‘ZBEKCHA

RU РУССКИЙ

AFN36881841

MFL42818349
Rev.00_200418

www.lg.com

Copyright © 2018 LG Electronics Inc. Barcha huquqlar himoyalangan.

MUNDARIJA

Ushbu qo'llanmada siz xarid qilgan rusumga taalluqli bo'lmagan tasvirlar yoki tarkib bo'lishi mumkin.
Ushbu qo'llanma ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

XAVFSIZLIK KO'RSATMALARI 03

Muhim xavfsizlik ko'rsatmalari 03

O‘RNATISH 09

Ko‘chirish yoki tashish paytidagi eslatmalar 09
Atrof-muhit harorati 09
O‘lchamlar va oraliqlar 09
Oyoqchalarni rostlash 09
O‘rnatish uchun eslatmalar 09
Eshik ochilish tomonini o'zgartirish 10

ISHLATISH 12

Ishlatish bo'yicha izohlar 12
Boshqaruv paneli 13
Muz lotogi 14
"Fresh Converter" yangi holda saqlash bo‘linmasida haroratni sozlash 16
"Fresh Balancer" sabzavotlar tortma qutisi 16
Taxlanuvchi tokcha 16

AQLLI FUNKSIYALAR 17

LG SmartThinQ ilovasidan foydalanish 17
Ochiq manba dasturi eslatmasi 17
LG Electronics mijozlarni qo'llabquvvatlash markazi orqali Smart Diagnosis™ (Aqlli tashxis) tizimi 18

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH 19

Tozalash uchun eslatmalar 19
Eshik savatchasini olish va qayta o‘rnatish 19
Sovutkich tokchasini chiqarib olish 19
Taxlanuvchi tokchani chiqarib olish 20
Sabzavotlar tortmasini olish 20
Qopqoqli tortma qutini chiqarib olish 20
Muzlatgich tortma qutilarini chiqarib olish 20
Muzlatish bo'linmasi qutisin i olish va qayta o‘rnatish 20

NOSOZLIKLARNI BARTARAF ETISH 22

TEXNIK XUSUSIYATLARI 26

XAVFSIZLIK KO'RSATMALARI

Quyidagi xavfsizlik ko'rsatmalari kutilmagan xavflar hamda jihozdan ehtiyotsizlik bilan yoki noto'g'ri foydalanish oqibatida kelib chiqadigan zararlarning oldini olishga mo'ljallangan. Ushbu ko'rsatmalar quyida ko'rsatilganidek “OGOHLANTIRISH” va “DIQQAT” belgilari bilan qismlarga ajratilgan.

⚠ **Ushbu belgi xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan holat va amallarni bildiradi. Mazkur belgi bilan ajratilgan qismni ehtiyotkorlik bilan o'qing va xavfning oldini olish uchun ko'rsatmalarga amal qiling.**

⚠ **OGOHLANTIRISH**

Bu belgi ko'rsatmalarga amal qilmaslik jiddiy jarohat yoki o'limga sabab bo'lishi mumkinligini bildiradi.

⚠ **DIQQAT**

Bu belgi ko'rsatmalarga amal qilmaslik yengil jarohat yoki mahsulotga zarar yetishiga sabab bo'lishi mumkinligini bildiradi.

MUHIM XAVFSIZLIK KO’RSATMALARI

⚠ **OGOHLANTIRISH**

Mahsulotdan foydalanish asnosida portlash, yong'in chiqish, o'lim, elektr zarbasi yoki jarohatning oldini olish uchun asosiy ehtiyotkorlik choralariga amal qiling:

Uydagi bolalar

Ushbu jihoz jismoniy, sezgi yoki aqliy qobiliyati cheklangan, foydalanish tajribasi va bilimi kam shaxslar (jumladan, bolalar) tomonidan foydalanish uchun mo'ljallanmagan. Agar ularning xavfsizligi uchun javobgar biror shaxs jihozdan foydalanishda ularni nazorat qilib tursa yoki ko'rsatma berib tursa, bunday shaxslar jihozdan foydalanishlari mumkin. Bolalarni jihoz yonida nazoratsiz qoldirmang.

⚠ DIQQAT

Mahsulotdan foydalanish asnosida portlash, yong'in chiqish, o'lim, elektr zarbasi yoki jarohatning oldini olish uchun asosiy ehtiyotkorlik choralariga amal qiling:

O'rnatish

- Bu jihozni ikki yoki undan ortiq kishi mahkam ushlagan holda joyidan ko‘chirishi lozim.
- Rozetka yerga to‘g‘ri uzatilganligiga, elektr kabelidagi yerga ulash mixchasi shikastlanmaganligiga va uning elektr tarmog‘idan uzib qo‘yilmaganligiga ishonch hosil qiling. Yerga ulash bo‘yicha batafsil ma’lumot uchun LG Electronics mijozlarni qo'llab-quvvatlash markaziga murojaat qiling.
- Bu jihozning elektr shnuri uskunani yerga ulash simi va vilkasi bilan jihozlangan. Barcha mahalliy qonun-qoidalarga muvofiq tarzda o‘rnatilgan va yerga ulangan rozetkadan foydalanish shart.
- Agar elektr shnuri shikastlangan yoki rozetkaning teshigi bo‘shab qolgan bo‘lsa, shnuri ishlatmang hamda vakolatli xizmatko‘rsatish markaziga murojaat qiling.
- Jihozni elektr kabeli (o‘rnatilgan) bo‘lmagan ko‘p rozetkali adapterga ulamang.
- Elektr kabelini almashtirmang yoki uzaytirmang.
- Aslo uzaytirgich yoki juft adapterdan foydalanmang. Jihoz alohida saqlagichli alohida elektr liniyasiga ulanishi zarur.
- Yerga yaxshi ulanmagan ko‘p shtepselli rozetka (portativ)dan foydalanmang. Yerga yaxshi ulangan ko‘p shtepselli rozetka (portativ)dan foydalansangiz, tok yuklanishi yuqori bo‘lgan ko‘p shtepselli rozetkadan va faqat ushbu uy jihozi uchungina foydalaning. Ushbu xavfsizlik talabiga rioya qilmaslik tok urishi yoki ko‘p shtepselli rozetkaning haddan ziyod qizishi oqibatida yong‘inga olib kelishi mumkin. Avtomatik o‘chiruvchi ishlatilganda tok o‘chirilishi mumkin.
- Jihozni uning elektr kabeli tarmoqdan oson uziladigan joyga o‘rnating.
- Elektr kabeli vilkasi yuqoriga yo‘nalib qolishi yoki jihozning elektr kabeli vilkasiga tiralib qolishidan saqlaning.
- Jihozni qattiq va tekis polga o‘rnating.
- Jihozni nam va changli joyga o‘rnatmang. Jihozni tashqariga yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh nuri, shamol yoki yomg‘ir tegadigan, harorat muzlashgacha boradigan joylarga o‘rnatmang yoki saqlamang.
- Jihozni quyosh nuri to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushadigan joyga qo‘ymang va plita yoki isitkich kabi qizdiruvchi jihozlardan chiqadigan issiqlik ta’sirida qoldirmang.
- Jihozni o‘rnatishda orqa tomonini ochilib qolishidan ehtiyot bo‘ling.
- Jihoz eshigini o‘rnatishda yoki yechishda uning qulab ketishiga yo‘l qo‘ymang.
- Jihoz eshigini o‘rnatishda yoki yechishda elektr kabelining qisilib qolishi, ezilishi yoki shikastlanishidan ehtiyot bo‘ling.
- Elektr kabeli vilkasiga vilka adapteri yoki boshqa qurilmalarni ulamang.

Ishlatish

- Jihozda oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashdan boshqa maqsadlarda (tibbiy yoki tajriba materiallari saqlash yoxud yetkazib berishda) foydalanmang.

- Suv toshib ketsa, tokdan sug‘uring va LG Electronics mijozlarni qo‘llab-quvvatlash markaziga murojaat qiling.
- Qattiq momaqaldiroq yoki chaqmoq paytida yo uzoq muddat foydalanishi ko‘zda tutilmagan holatlarda jihozning elektr kabeli vilkasini tarmoqdan uzib qo‘ying.
- Ho‘l qo‘lingiz bilan elektr vilkasiga yoki jihozning tugmalariga tegmang.
- Elektr kabelini haddan ortiq bukmang yoki ustiga og‘ir buyum qo‘ymang.
- Agar jihozning elekt qurilmalari ichiga suv kirib ketadigan bo‘lsa, elektr kabeli vilkasini tarmoqdan uzing va LG Electronics mijozlar uchun axborot markaziga murojaat qiling.
- Jihozning sovuq chiqaradigan joyiga, orqa paneliga yoxud issiqlik chiquvchi panjarasiga qo‘lingizni yoki metal buyumlarni qo‘ymang.
- Jihozning orqa paneliga ortiqcha kuch yoki zarba ishlatmang.
- Jihoz ichiga uy hayvonlari yoki boshqa jonzotlarni solmang.
- Jihoz eshigini ochish yoki yopishda atrofda yurgan bolalarga ehtiyot bo‘ling. Eshik bolaga jarohat yetkazishi yoki shikastlashi mumkin.
- Bolalarning jihoz ichiga qamalib qolish xavfidan ehtiyot bo‘ling. Jihoz ichiga qamalib qolgan bola dimiqib qolishi mumkin.
- Jihoz ichiga og‘ir yoki mo‘rt buyumlarni, ichida suyuqlik bor idishlarni, yonuvchan moddalarni yoki oson alangalanuvchan buyumlarni (masalan, sham, shamchiroq va h.k.) va qizdiruvchi uskunalarni (masalan, plita, isitkich va h.k.) qo‘ymang.
- Agar gaz (izobutan, propan, tabiiy gaz va h.k.) chiqayotgan bo‘lsa, jihozga yoki elektr kabeli vilkasiga tegmang va darhol xonani shamollating. Bu jihozda sovituvchi modda sifatida ekologik toza gazdan (izobutan, R600a) foydalaniladi. Garchi undagi gaz miqdori juda oz bo‘lsa-da, u baribir yonuvchandir. Jihozni tashish, o‘rnatish yoki undan foydalanish paytida undan gaz chiqsa va uchqun chiqishi kuzatilsa, bu yong‘in, portlash yoki tan jarohatlariga olib kelishi mumkin.
- Jihoz yaqinida tez alangalanuvchan yoki yonuvchan moddalardan (efir, benzol, spirt, boshqa kimyoviy moddalar, siqilgan suyuq gaz, yonuvchan aerozol, hasharotlarga qarshi purkaluvchi vosita, havo tozalagich, pardoz vositasi va h.k.) foydalanmang yoki ularni saqlamang.
- Agar jihozdan g‘alati ovoz, hid yoki tutun chiqayotganini sezsangiz, darhol elektr kabeli vilkasini tarmoqdan uzing va LG Electronics mijozlarni qo'llab-quvvatlash markaziga murojaat qiling.

Texnik xizmat ko'rsatish

- Jihozni tozalash yoki ichki chirog‘ini (agar o‘rnatilgan bo‘lsa) almashtirishdan oldin elektr kabelini tarmoqdan uzing.
- Namlik yoki changni yaxshilab tozalab tashlagandan so‘nggina elektr vilkasini rozetkaga ulang.
- Jihozni tokdan uzishda elektr kabelidan tortmang. Doim vilkani mahkam ushlang va rozetkadan to‘g‘ri yo‘nalishda tortib chiqaring.
- Jihozni tozalash uchun uning ichiga yoki tashqarisiga hech qachon suv yoki yonuvchan moddalarni (tish pastasi, spirt, eritgich, benzin, oson alangalanuvchi modda, abraziv material va h.k.) purkamang
- Jihozni hech qachon dag‘al yuzali yoki metall materialdan qilingan cho‘tka, latta yoki mochalka bilan tozalamang.

- Faqat LG Electronics xizmat ko'rsatish markazining malakali mutaxassisigina jihozni qismlarga ajratishi, ta’mirlashi yoki o‘zgartirishi zarur. Agar jihozni boshqa joyga ko‘chirib o‘rnatadigan bo‘lsangiz, LG Electronics mijozlarni qo'llab-quvvatlash markaziga murojaat qiling.
- Jihozning ichki tomonini quritish uchun soch qurituvchi uskunadan foydalanmang va badbo‘y islarni ketkazish uchun jihoz ichiga sham tiqmang.

Chiqitga chiqarish

- Jihozni tashlab yuborayotganda uning tokchalarini va savatchalarini joyida qoldirgan holda, eshik qistirmasini olib tashlang va bolalarni jihozdan uzoq tuting.
- Qadoq materiallari (plastik paketlar va penoplast)ni bolalardan uzoqroqda chiqitga chiqaring. Qadoq materiallari bo‘g‘ilib qolishga sabab bo‘lishi mumkin.

Texnik xavfsizlik

- Jihozning korpusida yoki ichki tuzilmasida o‘rnatilgan shamollatish teshiklarining tiqilib qolishiga yo‘l qo‘ymang.
- Oziq-ovqat mahsulotlari tortmalarida ishlab chiqaruvchi tavsiya qilgan vositalar turiga mos bo‘lmagan elektr jihozlarni saqlamang.
- Jihozda qo‘llanilgan sovituvchi modda yoki izolyatsion gazni chiqitga chiqarishda maxsus tartib amal qiladi. Ularni chiqitga chiqarishdan avval servis markazi agenti yoki sohaning malakali ustasi bilan maslahatlashing.
- Bu jihozda oz miqdorda izobutan sovituvchi moddasi (R600a), yuqori darajada ekologik muvofiqlashgan tabiiy gaz bo‘lib, u ham yonuvchan hisoblanadi. Jihozni tashishda yoki o‘rnatishda uning sovitish sxemasiga shikast yetkazmaslik uchun ehtiyotkorlikka rioya qilish talab etiladi.
- Jihoz naychalaridan sovituvchi moddaning oqishi yong‘in yoki portlashni keltirib chiqarishi mumkin.
- Agar shunday oqish holati yuzaga kelgan bo‘lsa, jihoz atrofida ochiq alanga yoki ehtimoliy isitish manbalari bo‘lishiga yo‘l qo‘ymang va jihoz turgan xonani bir necha daqiqa davomida shamollating. Agar sovituvchi modda oqishi kuzatilsa, yonuvchan gazlarning havodagi aralashmasi yuzaga kelishining oldini olish uchun, jihoz foydalanilayotgan xona o‘lchamlari undagi sovituvchi modda miqdoriga mos bo‘lishi zarur. Jihoz ichidagi R600a sovituvchi moddasining har 8 grammiga xonada 1 m² joy bo‘lishi zarur.
- Aynan sizning jihozingizdagi sovituvchi modda miqdori jihoz ichidagi identifikatsiya yorlig‘ida ko‘rsatilgan.
- Biror shikastlanish belgisi bo‘lgan jihozni ishga tushirmang. Agar bunga shubha qilsangiz, dileringizga murojaat qiling.
- Ushbu jihoz faqat uy sharoitida qo‘llash va shunday maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan. Undan tijorat maqsadida yoki umumiy ovqatlanish joylarida, g‘ildirakli uy yoxud kema kabi harakatlanuvchi transport vositalarida foydalanmaslik zarur.
- Jihoz ichida yonuvchan suyuqlikli aerozol idishlari kabi portlovchi moddalarni saqlamang.

⚠ DIQQAT

Kichik shaxsiy jarohatlarning xavfini kamaytirish, mahsulotning noto'g'ri ishlashi yoki mulkka shikast etishining xavfini kamaytirish uchun asosiy dastlabki ehtiyot choralari ko'rilishi kerak, jumladan, quyidagilar:

Ishlatish

- Muzlatish bo'linmasidagi muzlagan oziq-ovqat mahsulotlari yoki uning metal qismlariga nam yoki ho‘l qo‘l bilan teginmang. Bu sovuq urishiga sabab bo‘lishi mumkin.
- Harorati muzlash nuqtasidan pastroq haroratga tushadigan muzlatish bo‘linmasi, tokchalar yoki muz idishiga shisha idishlar, butilka yoki banka solmang (ayniqsa ichida gazli ichimlik bo‘lsa).
- Jihoz eshigining old tomonidagi toblangan oyna yoki uning tokchalari zarba berilganda sinishi mumkin. Agar u sinsa, uni ho‘l qo‘l bilan ushlamang, chunki bu tan jarohatiga sabab bo‘lishi mumkin.
- Jihoz eshiklari, kamerasi yoki tokchalariga osilmang yoki ustiga chiqmang.
- Eshik savatchalarida ortiqcha miqdordagi suv idishlari yoki likopchalar uchun idishlarni saqlamang. Savatcha buzilishi yoki qo‘lingiz uning atrofidagi joyga tegib, jarohatlanishi mumkin.
- Jihoz ichida oziq-ovqat mahsulotlarini tartib bilan qo‘ying.
- Uy hayvonlari elektr kabeli yoki suv chiqadigan rezina quvurni kemirishiga yo'l qo'ymang.
- Jihoz eshigini ortiqcha kuch ishlatib ochib yopmang.
- Agar jihoz eshigining oshiq-moshig'i shikastlangan yoki noto'g'ri ishlayotgan bo'lsa, uni ishlatishdan to'xtating va vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.
- Jihozning sovitish sxemasiga zarar yetkazmang.
- Jihoz ichiga hech qanday elektr uskunasi (isitkich yoki mobil telefoni kabilar) solmang.
- Shisha tokchalar yoki qopqoqlarni sovuqligida issiq suv bilan tozalamang. Harorat birdan o‘zgarishi tufayli ular sinishi mumkin.
- Muzlagan oziq-ovqat mahsulotlarini muzlatish bo‘linmasidan olinishi bilanoq iste’mol qilmang.
- Jihoz eshigini ochib yopganda qo‘l yoki oyog‘ingiz qisilib qolmasligiga ishonch hosil qiling.
- Shisha idishlarni muzlatish bo’linmasiga, harorat noldan past bo’luvchi tokcha yoki muz hosil qiluvchi idishga joylashtirmang.

Xizmat ko‘rsatish

- Tokchalarni to’nkarilgan holatda joylashtirmang. Tokchalar tushib ketishi va jarohatga sabab bo’lishi mumkin.
- Uzoq muddatga elektr energiya tarmog’idan uzishdan oldin muzlatish bo’linmasidagi muz hosil qilish idishidan muzni olib qo’ying.

Saqlash

- Jihozni xonadan tashqarida yoki ob-havo sharoitlari (to’g’ridan-to’g’ri quyosh nurlari, shamol, yomg’ir yoki noldan past havo harorati) to’g’ridan-to’g’ri ta’siri ostida saqlamang.

Tashish

Jihozni tashish har qanday transport vositasi orqali tegishli transport tashish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

- Tashish jarohatlanishga yo’l qo’yilmaydigan shart-sharoitda amalga oshirilishi lozim.
- Yuklarni ortish va tushirish jarayonlarida mahsulotni zararli ta’sirga duchor qilish taqiqlanadi.

Sotish

- Mahsulotni sotish sotuvga chiqariladigan mamlakatning joriy qonunlari bilan belgilangan qoidalariga ko’ra amalga oshiriladi.

Chiqitga chiqarish



- Chiqindi savati ustida chizilgan belgi ishlatilgan elektr va elektron jihozlar (WEEE)ni maishiy chiqindidan alohida chiqitga chiqarish lozimligini bildiradi.
- Eski elektr va elektron jihozlar xavfli moddalarga ega bo'lishi mumkin, shuning uchun eski jihozning to'g'ri chiqitga chiqarilishi atrof-muhit va inson salomatligiga xavf soluvchi salbiy oqibatlarning oldini oladi. Eskirgan qurilma tarkibida boshqa mahsulotlarni ta'mirlash ushun foydalaniladigan takroriy qo'llanish qismlari va cheklangan resurslarni unumlash maqsadida qayta ishlanadigan qimmatbaho ashyolar bo'lishi mumkin.
- Jihozingizni xarid qilgan do'konga olib borishingiz yoki chiqitga chiqariladigan eski qurilmalarni qabul qiluvchi eng yaqin punkt haqida ko'proq ma'lumot olish uchun shahar ma'muriyatiga murojaat qilishingiz mumkin.

Jihozdan foydalanish maqsadi

Ushbu jihoz mahsulotlarni muzlatish va muzlatilgan va sovutilgan mahsulotlarni saqlash uchun mo’ljallangan.


Atrof-muhit harorati

Bu jihoz iqlim zonasiga qarab, cheklangan diapazondagi haroratda ishlashga mo‘ljallangan. Chegaradan ortiq haroratda jihozni ishlatmang. Ichki haroratga jihoz o‘rnatilgan joyi, atrofmuhitdagi harorat, eshikning qancha ochilibyopilishi va boshqalar ta’sir ko‘rsatadi. Iqlim sinfini yorliqda ko‘rish mumkin.

Iqlim sinfi	Notation	Atrof-muhit harorati diapazoni ºC
Me'yordan yuqori iqlim	SN	+10 - +32
O'rtacha iqlim	N	+16 - +32
Subtropikal	ST	+16 - +38
Tropik	T	+16 - +43

O‘lchamlar va oraliqlar

Tegishli buyumlar bilan oralig‘i juda kichkina bo‘lsa, muzlatish samarasi pasayishi va elektr xarajati ortishi mumkin. Jihozni o‘rnatishda har tomondagi devordan kamida 50 mm oraliq qoldiring.



Model	GA-*499T*** GA-*499S***	GA-*499Z***
	O‘lchami	
A	595	
B	2000	
C	668	688
D	668	648
E	-	688
F	1045	1150
G	710	970

Ko‘chirish yoki tashish paytidagi eslatmalar

- Jihoz ichidagi barcha oziq-ovqat mahsulotlarini olib tashlang. So‘ngra, jihozning tokchalari va eshik tutqichi kabi mo‘rt qismlarini maxsus lenta bilan mahkamlagandan keyin jihozni tashing. Bu talabga rioya qilmaslik jihozning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- Elektr kabeli vilkasini rozetkadan sug‘uring, so‘ngra uni jihoz yon tarafidagi yoki tepasidagi elektr kabeli ilgichiga mahkamlang. Bu talabga rioya qilmaslik elektr kabeli vilkasiga shikast yetkazishi yoki polning tirnalishiga olib kelishi mumkin.
- Jihozni tashish chog‘ida ikkitadan ortiq odam jihozni ehtiyotkorlik bilan ko‘tarishi zarur. O‘ta vazmin bo‘lgan jihozni qo‘ldan tushirib yuborish kishilarga tan jarohati yetkazishi yoki jihozning buzilishiga olib kelishi mumkin.
- Jihozni uzoq masofaga tashishda uni tik holda bo‘lishini ta’minlang. Jihoz qulab tushishi va ishlamay qolishi mumkin. Jihozni tashishda uni yotqizmang, chunki u qayta tik holatga keltirilganda sovituvchi modda aylanishi izdan chiqishi mumkin.


Oyoqchalarni rostlash

Tebranmasligi uchun jihozni tekis joylashtirish lozim. Kerak bo‘lsa, notekis pol tufayli tekis joylashtirish uchun tekislovchi oyoqchalarni rostlang.
Eshik yopilishi oson bo‘lishi uchun old tomoni orqaga qaraganda balandroq bo‘lishi lozim.
Korpusni ozgina itarish orqali tekislovchi oyoqchalarini osongina burash mumkin.
Jihozni ko‘tarish uchun tekislovchi oyoqchasini soat yo‘nalishiga qarshi ( ) burang, pasaytirish uchun soat yo‘nalishida ( ) burang.

O‘rnatish uchun eslatmalar

- Jihozni qattiq va tekis polga o‘rnating.
  - Agar jihoz notekis polga o‘rnatiladigan bo‘lsa, bu tebranish va shovqinni keltirib chiqaradi, buning oqibatida jihoz qulab tushib, kishilarga tan jarohati yetkazishi mumkin. Shuningdek, buning oqibatida eshik yaxshi yopilmasligi va jihoz ishlayotganda ichidan suyuqlik oqib chiqishi ham mumkin.
  - Jihozning old yoki orqa tarafi tekis turmayotgan bo‘lsa, old oyoqlarni sozlab, uning tekisligini ta’minlang. Jiddiy vaziyatlarda jihoz tagiga yupqa taxta bo‘laklari qo‘yib polni tekislash mumkin.
- Jihozni issiqlik manbalari yaqinida, to‘g‘ridanto‘ g‘ri quyosh tushadigan yoki nam joyga qo‘yishdan saqlaning.
- Elektr kabelini (yoki vilkani) rozetkaga ulang. Bitta rozetkaga boshqa jihozlarni ulamang.

- Rozetkaga elektr kabelini (yoki vilkani) ulagandan so‘ng, jihoz ichiga oziq-ovqat mahsulotlarini qo‘yish uchun ikki yoki uch soat kuting. Agar jihoz to‘liq sovib olgunga qadar uning ichiga oziq-ovqat mahsulotlari solinsa, ular aynib qolishi mumkin.
- Jihozni o‘rnatgandan so‘ng elektr vilkani rozetkaga suqing. Jihozni ko‘chirish yoki tashlab yuborishdan oldin vilkani rozetkadan sug‘uring.
- Qurilmaning orqa plastinasining yuqori burchaklaridagi cheklovchi to‘xtatgichlarni 1-rasmda ko‘rsatilgani kabi o‘rnating To‘xtatgichlarni (2) jihoz bo‘lmasi ichidagi tortma quti ichidan topish mumkin.
  −1-rasm: To‘xtatgich (2) ni (1) qism ichiga oxirigacha suring. Sovutgichni devor tomon suring.



Eshik ochilish tomonini o'zgartirish

Jihozingiz ochilish tomoni o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan eshiklar bilan jihozlangan, ya’ni oshxonaningiz dizayniga mos tushishi uchun ularni chap tomonga yoki o‘ng tomonga ochish mumkin.


TALAB QILINUVCHI ASBOBLAR:

- 10 mm va 6 mm gayka klyuchlari
- 5 mm olti burchakli gayka klyuchi
- Plyusli otvertka


IZOH

Biroq jihozingiz eshigi ochilishini o‘zgartirmoqchi bo‘lsangiz, xizmat ko‘rsatish markaziga qo‘ng‘iroq qilishingiz kerak. O‘rnatish sharoiti kafolat tomonidan qamrab olinmaydi.
Sovutgich eshiklarini teskarilashdan avval qurilmani rozetkadan uzing va oziq-ovqat mahsulotlari va tokchalar hamda surilma qutilar kabi olinuvchi aksessuarlarni sovutgichdan olib qo‘ying.
Sovutgichni polga yotqizib qo‘ymang.
Sovutgichni qismlarga ajratganda va qayta yig‘ganda eshigini tashlab yubormaslik uchun ehtiyot bo‘ling.


- Burama mixlarni (1) chiqarib olish orqali sovutgich bo‘lmasining yuqori qopqoqni (2) chiqarib oling. Probkani (3) yuqori qopqoqning (2) qarama-qarshi tomoniga suring. Ulovchi kabelni (4) uzing.




- Burama mixlarni (5) chiqarib olgandan keyin uni oldinga torting va simni (6) shikastlamagan holda qopqoqni ko‘taring. Sim ushlagichini (7) chiqarib oling va uni qopqoq markaziga (6) biriktiring. Probkani (9) qopqoqning (6) qarshi tomoniga o‘rnating.




- Sim ushlagichni (8) qopqoqning (6) markaziy qismidan tortib chiqaring va uni qopqoqning (6) qarshi tomoniga biriktiring. Qo'rg'oshinli simlarni (10) qopqoqning (6) qarshi tomoniga suring.




- Yuqori ilgakni (12) burama mixlarni (11) chiqarib olish orqali olib qo‘ying. Sovutgich bo‘lmasi eshigini chiqarib oling; Stergenni (13) bo‘shating va uni 6 mm li gayka klyuchi bilan ilgakning (12) qarshi tomoniga biriktiring.



- Markaziy eshik ilgakini (15) 5 mm li olti burchakli klyuch bilan burama mixlarni (14) chiqarib olish orqali bo‘shatib oling. Sovutish bo'linmasi eshigini chiqarib oling. Probkani (16) sovutgichning qarshi tomoniga biriktiring.




• Quyi ilgakni (18) burama mixlarni (17) chiqarib olish orqali olib qo‘ying. Sterjenni (19) bo‘shating va uni 6 mm li gayka klyuchi bilan ilgakning (18) qarshi tomoniga biriktiring. Muzxona bo‘lmasining yuqori qismidagi probkani (20) chiqarib oling va uni qarshi tomonga o‘rnating.




• Burama mixlarni (24) bo‘shatib olish orqali sovutgich bo‘lmasining quyi qismidagi eshik to‘xtatgichi (21), vtulka* (22) va eshik yopgichni (23) chiqarib oling va ularni qarshi tomonga mahkamlang. Bu harakatlarni muzlatgich eshigi uchun ham takrorlang.

Quyidagi rusumlar uchun GA**499Z*




* Vtulka(22) faqat eshikning to'liq majmuasiga kiritilgan sovutgich kamerasining.

Quyidagi rusumlar uchun GA**499T*/GA**499S*




Quyidagi rusumlar uchun: GA**499Z*

• Sovutish va muzlatish bo’linmalari (5) eshigi mexanik ushlagichlarini (1) qopqoqni (2) olgan holda va burama mixlarni (3) ochgan holda yechib oling.
• To’siqlarni olib qo’ying (4).
• Mexanik ushlagich (1), (5) va to’siq (4)ni qarama-qarshi tomonga teskari ketma-ketlikda o’rnating.




Quyidagi rusumlar uchun:
GA**499T***/GA**499S***

• Surgichni (1) chiqarib oling va uni rasmda ko‘rsatilgani kabi qarshi tomonga joylashtiring.



• Muzlatish bo'linmasining quyi ilgagini (18), keyin muzlatish bo'linmasi eshigi, keyin sovutish bo'linmasining markaziy eshik ilgagini (15), keyin yuqori eshik ilgagini (12) o‘rnating, keyin ulagich kabelini (4) ulang, qopqoq (6) va (2) ni teskari ketma-ketlikda o‘rnating.

Ishlatish



1 **Boshqaruv paneli**
Muzlatgich va sovutgich haroratini o‘rnatish.

2 **LED chiroq**
Jihoz eshigi ochilganda uning ichidagi LED chiroqlar yonadi.

3 **Sovutgich tokchasi**
Bu yerda sovitilgan oziq-ovqatlar va boshqa narsalar saqlanadi.

- Tokchaga boshqa balandlikdagi murvatni qo‘yish bilan bu tokcha balandligini o‘zgartirish mumkin.
- Jihozdagi tokchalar soni uning modeliga qarab o‘zgarishi mumkin.

4 **Butilkalar tokchasi (Ixtiyoriy)**
Bu uzun butilka yoki idishlardagi ichimliklar saqlanadigan joyidr.

5 **Taxlanuvchi tokcha (Ixtiyoriy)**
Bu yerda sovitilgan oziq-ovqatlar va yuqori narsalar saqlanadi.

6 **Tortib chiqariluvchi sabzavotlar qutisi (Fresh Balancer) Ixtiyoriy**
Meva va sabzavotlarni uzoq muddat saqlash uchun.

7 **Optimal harorat bo'limi (Fresh Converter) Ixtiyoriy**
Bu tortma quti meva va sabzavotlar yoki baliq va go‘shtni saqlash uchun optimal haroratlarni ushlab turishi mumkin.

8 **Sut mahsulotlari burchagi**
Bu sariyog‘ yoki pishloq kabi sut mahsulotlari saqlanadigan joydir.

9 **Sovutgich eshigi savatchasi**
Kichik qadoqdagi sovitilgan oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va sous idishlari bu yerda saqlanishi mumkin.

10 **Tuxum lotogi**

11 **Muzlatgich tortma qutisi**
Bu yerda muzlatilgan oziq-ovqat mahsuloti uzoq muddat saqlanadi.

12 **Eshik dastasi (Ixtiyoriy)**

13 **Sozlanuvchi oyoqchalar**

IZOH

Ishlab chiqaruvchi korxona oldindan ogohlantirishsiz sovutgich tarkibiy qismlariga o‘zgartirish kiritishi mumkin. Jihozning ko‘rinishi va uning qismlari uning modeliga qarab farqlanishi mumkin.

Ishlatish bo'yicha izohlar

- Yax suvga mo‘ljallangan suv chiqarish uskunasini ichimlik suvidan boshqa ichimlikka ishlatmang.
- Jihoz tokchasi yoki eshik savatchasida saqlanayotgan oziq-ovqat mahsuloti bilan eshik orasida eshik bemalol yopilishi uchun yetarli joy bor ekanligiga ishonch hosil qiling.
- Jihoz eshigi ochilishi bilan uning ichiga issiq havo kirishi va bu uning ichki harorati oshib ketishiga olib kelishi mumkin. Jihoz eshigini ko‘p ochib yopmang
- LED-chiroq faqat uy-ro‘zg‘or jihozlarida foydalanish uchun mo‘ljallangan, u maishiy xonalarni yoritish uchun mo‘ljallanmagan.

Energiyani tejash bo'yicha maslahatlar

- Saqlanayotgan oziq-ovqat mahsulotlari orasida yetarli bo‘sh joy bo‘lishiga ishonch hosil qiling. Bu sovuq havoning barobar taqsimlanishi va elektr toki uchun xarajatlarning kamroq bo‘lishini ta’minlaydi.
- Terlash yoki muzlashning oldini olish maqsadida issiq oziq-ovqatni jihozga sovitilgandan keyin qo‘ying.

Mahsulotlarni yaxshi saqlash

- Muzlatilgan yoki sovitilgan oziq-ovqat mahsulotlarini zich yopiladigan idishlarda saqlang.
- Jihozga oziq-ovqat mahsulotini qo‘yishdan avval uning iste‘mol qilinishi mumkin bo‘lgan mudati va yorlig‘ini (saqlash bo‘yicha ko‘rsatmalar) tekshiring.
- Agar oziq-ovqat mahsuloti past haroratda tez aynib qoladigan bo‘lsa, u mahsulotni uzoq muddat saqlamang (to‘rt haftadan ortiq).
- Agar jihozda salqinlatish bo‘lmasi mavjud bo‘lsa, tarkibida suv miqdori ko‘p bo‘lgan mevasabzavotlarni bunday bo‘lmalarda saqlamang, chunki past harorat tufayli ular muzlashi mumkin.
- To‘liq muzdan tushirilgan oziq-ovqat mahsulotini qayta muzlatmang. To‘liq muzdan tushirilgan oziq-ovqat mahsulotini qayta muzlatish uning mazasi va ozuqaviylik darajasini pasaytiradi
- Jihoz ichida sabzavotlarni gazetaga o‘rab saqlamang. Gazetaning bo‘yog‘i yoki boshqa yot moddalar oziq-ovqat mahsulotining bo‘yalib ketishi va ifloslanishiga sabab bo‘lishi mumkin.
- Jihoz ichini haddan ziyod to‘ldirib yubormang. Uning ko‘pi bilan 70% qismini to‘ldiring. Agar jihoz ichini haddan ziyod to‘ldiriladigan bo‘lsa, sovuq havo yaxshi aylanmaydi.
- Agar oziq-ovqat mahsuloti uchun juda past harorat o‘rnatgan bo‘lsangiz, u muzlab qolishi mumkin. Jihozda oziq-ovqat mahsuloti to‘g‘ri saqlanishi uchun talab qilingan haroratdan past haroratni o‘rnatmang.
- Issiq ovqatni qo‘yishdan avval uni soviting. Agar jihoz ichiga kuda ko‘p issiq oziq-ovqat mahsuloti qo‘yiladigan bo‘lsa, uning ichki harorati oshib ketishi va jihoz ichidagi boshqa mahsulotlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Eng yuqori muzlatish quvvati «БЫСТР.ЗАМОРОЗ.»

- Tezkor muzlatish funksiyasi muzlatgichning eng yuqori muzlatish quvvatidan foydalanadi. Bunga odatda 24 soatgacha ketadi, keyin avtomatik ravishda o‘chadi. Agar maksimal muzlatish quvvati ishlatiladigan bo‘lsa, muzxonaga yangi mahsulotlar qo‘yilishidan yetti soat oldin Tezkor muzlatish yoqib qo‘yilishi lozim.
- Havo aylanishi yaxshiroq bo‘lishi uchun barcha tortmalarni joyiga qo‘ying

Elektr uzluksizligi

Elektr tarmog‘ida uzilish bo‘lsa, idoraga sim qoqing va uzilish qanchaga cho‘zilishini so‘rang.
− O‘chiq paytida eshigini ochmaslikka harakat qiling.
− Elektr ta’minoti tiklangach, oziq-ovqat mahsulotlarining holatini tekshirib ko‘ring.


Sovutgich ishlash xususiyatlari

Sovutgich tashkil etuvchi qismlari harorati o’zgarishi tufayli yoriq ovozi chiqishi mumkin. Haroratni nazorat qiluvchi va kompressorning yoqilishiga xos ovoz me’yor hisoblanib, jihoz ishlashida vujudga keladi. Sovutish tizimi ichida aylanuvchi sovituvchi modda kompressor ishlamagan holda ham baland bo’lmagan ovoz chiqarishi mumkin. Havotir olmang, bu mutlaqo me’yordagi holat. Sovutgich ishlashi jarayonida quyidagilar eshitilishi mumkin:
− Kompressor ishlash ovozi;
− Ventilyator qanotlari shivirlashi;
− No Frost sovutish tizimi aylanuvchi havosi oqimining ovozi;
− Rele ishga tushgandagi tiq etgan ovoz;
− Havo tirqishini yopuvchi moslamasini ochish va yopishdagi uzatma ovozi;
− Sovutish tizimi quvuri ichida aylanuvchi sovituvchi modda shivirlashi;
− Ashyodagi harorat o’zgarishlarida yengil tebranish.
Ushbu ovozlar hech qanday nuqson bilan bog’liq emas va funksional xususiyatga egadir.


Boshqaruv paneli

Birliklar va funksiyalar

<1-Turi>



<2-Turi>



1. **Регулировка температуры в холодильном отделении/Sovutgich harorati**
2. **Регулировка температуры в морозильном отделении/Muzlatgich harorati**
3. **Wi - Fi**
   - Bu sovutgichni uydagi Wi-Fi tarmoqqa ulanish orqali sozlaydi.
4. **БЫСТРАЯ ЗАМОРОЗКА/ EKSPRESS MUZLATISH**
   - Bu «БЫСТР.ЗАМОРОЗ.» (ekspress muzlatish) funksiyasini o‘rnatadi.
5. **ЭКО - РЕЖИМ/EKOLOGIK**
   - Bu energiya sarfini kamaytirish uchun Quvvat tejash rejimini boshqaradi.
6. **ЗВУК.СИГНАЛ/SOUND.SIGNAL**
   - Yaxshi yopilmagan eshikning ogohlantiruvchi ovozli signali
7. **Подсветка морозильного отделения/ Chiroq**
8. **БЛОКИРОВКА/QULFLASH**
   - Bu boshqaruv panelidagi tugmalarni qulflab qo‘yadi.

IZOH

Jihozdagi boshqaruv paneli uning rusumiga qarab o‘zgarishi mumkin.

Haroratni sozlash

- Ichki harorat o‘rnatildi.
  − Muzxona: 3 °C
  − Muzlatgich: -20 °C
- Haroratni sozlash uchun sovutgich tugmasini yoki muzlatgichda tugmasini bosing.

Boshqaruv paneli

1, 2 - Turi



Izoh

- Jihozni rozetkaga ulagandan so‘ng ikki yoki uch soat o‘tishini kuting va so‘ng‘ra unga oziq-ovqat mahsuloti qo'ying.
- Joriy ichki harorat jihoz ichidagi oziq-ovqat mahsuloti holatiga qarab o‘zgaradi, chunki ko‘rsatilgan o‘rnatilgan harorat jihozning joriy harorati emas, balki ko‘zlangan haroratidir.

Ekspress muzlatish funksiyasini «БЫСТР.ЗАМОРОЗ.»

Bu funksiya ko‘p miqdordagi muz yoki muzlagan oziq-ovqat mahsulotlarini tez muzlatish imkonini beradi.

- «БЫСТР.ЗАМОРОЗ.» tugmasi bosilganda boshqaruv panelidagi «БЫСТР.ЗАМОРОЗ.» belgisi chiroqlari yonadi.



- Bu funksiya mazkur tugmani har bosganingizda navbatma-navbat o‘chib yonadi.
- «БЫСТР.ЗАМОРОЗ.» funksiyasi ma’lum vaqt o‘tganidan so‘ng avtomatik tarzda o‘chadi.

Ekologik rejimni o‘rnatish «ЭКО-РЕЖИМ»

Bu funksiya sovutgich-muzlatgichni quvvat tejash rejimida ishlaydigan qiladi, bu esa siz uzoq safarda bo‘lganingizda foydalidir, chunki u energiya sarfini kamaytiradi.

- «ЭКО-РЕЖИМ» tugmasini bosish chiroq yoqilgan holda ishlatishni boshlaydi va uni yana bosish ishlatishni to‘xtatadi.



- Ekologik rejimi yoqilgan holda boshqa tugmalar ishlamaydi. Ekologik rejimdan foydalanishni yakunlaganingizda boshqa tugmalar ishlashi uchun uni o‘chirib qo‘ying va sovutgich o‘zining avvalgi harorat parametriga qaytadiю

Yaxshi yopilmagan eshikning ogohlantiruvchi ovozli signali

- Agar sovutgich eshigi ma’lum vaqt (~1 daq.) ochiq qolsa, har 30 soniya takrorlanuvchi ovozli signal yoqiladi.
- Ogohlantiruvchi ovozli signalni “ЗВУК СИГНАЛ” tugmasini qisqa bosish orqali yoqish va o’chirish mumkin (boshqarish paneli bor 1 turdagi rusum uchun).

IZOH

- Agar eshikni yopgandan keyin ham ogohlantiruvchi ovozli signal chiqsa, xizmat ko’rsatish markaziga murojaat qiling.

Блокировка/qulfni o‘rnatish va bekor qilish

Bu boshqaruv panelidagi tugmalarni qulflab qo‘yadi.

- «Блокировка» tugmasini bosib, 3 soniya davomida ushlab turing. «Блокировка» (qulflash) funksiyasi o‘rnatilsa, barcha tugmalar qulflanadi.


Chiroqni o‘rnatish

(Ixtiyoriy)

- Bu Muzlatgich bo‘lmasi chirog‘ini yoqadi va o‘chiradi.
- Chiroq tugmasini bosganingizda muzlatgich bo‘lmasi chirog‘i yonadi/o‘chadi. Bu tugmani ketma-ket bosish chiroqni butunlay yoqib qo‘yishi, uning ravshanligini pasaytirishi va uni o‘chirib qo‘yishi mumkin.
- Muzlatish bo'linmasining eshiklari ochiq bo‘lganida chiroq yoniq holda qoladi.

Muz lotogi

Muz patnisida belgilangan chiziqqacha suv quying.



- Faqat ichimlik suvini quying.
- Agar muz patnisi toshib ketsa, muz parchalari bir-biriga yopishib qoladi va chiqarib olish qiyinlashadi.
- Muzni tezda hosil qilish uchun boshqaruv panelidagi «БЫСТР.ЗАМОРОЗ» tugmasini bosing.
- Muzni osongina chiqarib olish uchun patnisga suv quyish, uni suvga botirish yoki bukish mumkin.


⚠ IZOH

- Muz patnisini bukishda kuch ishlatmang, chunki u sinib ketishi mumkin.

"Fresh Converter" yangi holda saqlash bo‘linmasida haroratni sozlash

(Ixtiyoriy)

"Fresh Converter" yangi holda saqlash bo‘linmasi harorat doiraviy dastasi holatini sozlash orqali haroratni boshqarishi mumkin va umumiy holda uning harorati sovutgiching o‘rnatilgan haroratiga qaraganda pastroq haroratda ushlab turiladi. 1-turi go‘sht saqlash uchun, 2-turi baliq saqlash uchun va 3-turi sabzavotlar saqlash uchun mo‘ljallangan.




- "Toza aylantirgich" bo‘lmasida ko‘proq taomlarni saqlash uchun tortma qutini tortib chiqaring.
- Go‘sht, baliq yoki sabzavotlarni saqlash uchun optimal sharoitlarni o‘rnatish uchun doiraviy shkalani saqlanuvchi mahsulotga mos rejimga o‘rnatish tavsiya qilinadi.

"Fresh Balancer" sabzavotlar tortma qutisi

(Ixtiyoriy)


Tugmani surish orqali sabzavotlar tortma qutisidagi namlikni rostlash mumkin. Chapga surilsa, qopqoq va patnis ochiladi, agar o‘ngga surilsa, qopqoq va patnis yopiladi – shunda namlik saqlanib qoladi. Sabzavotlarni (2-tur) yopiq holda, mevalarni (1-tur) esa ochiq holda saqlagan ma’qul.




Taxlanuvchi shisha tokcha

(Ixtiyoriy)

- Tokchaning old yarmini tokchaning orqa yarmining tagiga surish orqali gallon konteyneri yoki butilkalar singari bo‘yi uzun narsalarni joylashtiring. Tokchani to‘liq holatga qaytarish uchun polkaning old qismini torting.



- Tokchaning old tomonini ko‘taring va uni orqa tomoniga o‘tkazing.



- Tokchaning old tomonini ko‘taring va uni orqa tomoni tagiga o‘tkazing. Bu holatda joy bo‘shatish uchun tokchaning har ikkala tomonidan ko‘tarish mumkin.

Izoh

Tavsiya qilingan holat:

- Sovutgich uchun harorat: +3° C
- Muzlatgich uchun harorat: -20° C
- Toza aylantirgichdahi o‘rta holat (2-tur)

AQLLI FUNKSIYALAR


LG SmartThinQ ilovasidan foydalanish

LG SmartThinQ-dan foydalanishdan avval tekshiriladigan narsalar

- Quyidagi belgi tushirilgan jihozlar uchun SmartThinQ yoki SmartThinQ™

1 Jihoz va simsiz router (Wi-Fi tarmoq) orasidagi masofani tekshiring.
   - Agar jihoz va simsiz router orasidagi masofa juda uzoq bo‘lsa, signal kuchi pasayadi. Ulanish uzoq vaqt talab qilishi yoki o‘rnatish muvaffaqiyatsiz bo‘lishi mumkin.

2 Smartfoningizdagi Mobil internetni o‘chiring.
   - iPhone telefonlarida Sozlamalar → Mobil → Mobil internet yordamida mobil internetni o‘chiring.



3 Smartfoningizni simsiz routerga ulang.



IZOH

- Wi-Fi ulanishini tekshirish uchun boshqaruv panelida Wi-Fi belgisi yoqilganligini ko‘ring.
- Bu jihoz faqat 2.4 GGs chastotali Wi-Fi tarmoqlarda ishlaydi. Tarmoq chastotasini tekshirish uchun internet-provayderingizga murojaat qiling yoki simsiz router qo‘llanmasiga qarang.
- LG SmartThinQ tarmoqqa ulanish muammolari yoki tarmoqda yuzaga kelgan har qanday nosozlik, noto‘g‘ri ishlash yoki xatolarni bartaraf qilish uchun mo'ljallanmagan.
- Agar jihozlar Wi-Fi tarmog‘iga ulana olmasa, muammo jihoz rauterdan uzoqda joylashganligi sababli yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Wi-Fi signalini kuchaytirish uchun Wi-Fi retranslyator (signal kuchaytirgich) sotib oling.
- Uydagi tarmoq muhitiga qarab Wi-Fi ulanishi o‘rnatilmasligi yoki uzilib qolishi mumkin.
- Internet ta'minotchisiga qarab, tarmoq ulanishida muammolar yuzaga kelishi mumkin.
- Atrofdagi simsiz aloqa muhiti tufayli simsiz tarmoq xizmati sekin ishlashi mumkin.
- Simsiz signal uzatilishida muammo bo‘lsa, jihoz tarmoqqa ulana olmaydi. Jihozni o‘chiring va yana urinib ko‘rishdan avval taxminan bir daqiqa kuting.
- Agar simsiz routeringizda himoya devori yoniq bo‘lsa, himoya devorini o‘chiring yoki uni istisnolar ro‘yxatiga kiriting.
- Simsiz tarmoq nomi (SSID) inglizcha harflar va raqamlar birikmasidan iborat bo‘lishi lozim. (Maxsus belgilarni ishlatmang).
- Smartfonning foydalanuvchi interfeysi (UI) mobil operatsion tizim (OS) va ishlab chiqaruvchiga qarab farq qilishi mumkin.
- Agar routerning xavfsizlik protokoli WEP qilib belgilangan bo‘lsa, tarmoqni sozlay olmasligingiz mumkin. Uni boshqa xavfsizlik protokoliga o‘zgartiring (WPA2 tavsiya etiladi) va jihozni yana registratsiya qiling.

LG SmartThinQ ilovasini o'rnatish

Smartfonda Google Play Store yoki Apple App Store do‘konlaridan LG SmartThinQ ilovasini qidiring. Ilovani yuklab olish va o‘rnatish ko‘rsatmalariga amal toping.

Sozlanmalar

Sovutgichda va ilovada turli parametrlarni qo‘yish imkonini beradi.

IZOH

- Agar simsiz marshrutizator, Internet xizmati provayderi yoki parolni o‘zgartirsangiz, ro‘yxatga olingan jihozni LG SmartThinQ ilovasidan o‘chiring va uni qaytadan ro‘yxatdan o‘tkazing.
- Rusumga bog'liq ravishda xususiyatlar o'zgarishi mumkin.
- Mahsulot sifatini oshirish maqsadida foydalanuvchiga oldindan ogohlantirishsiz ilovaga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.


Ochiq manba dasturi eslatmasi

Ushbu mahsulotda mavjud GPL, LGPL, MPL va boshqa ochiq kodli litsenziyalar shartlari asosida ilk kod haqida bilishni istasangiz, http://opensource.lge.com veb sahifasiga tashrif buyuring.
Ochiq turdagi kodlarga qo‘shimcha ravishda barcha tegishli litsenziya shartlari, kafolatlarning rad qilinishlari va mualliflik huquqlari to‘g‘risidagi bildirishnomalarni ham yuklab olish mumkin.
